

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

CHET TILLARI FAKULTETI

**NEMIS TILI TA'LIM YO'NALISHI 401-GURUH TALABASI
ABDURASULOVA XOLIDA ULUG'BEKOVNANING**

**5220100-FILOLOGIYA NEMIS TILI TA'LIM YO'NALISHI
BO`YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLIH UCHUN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "Die deutschen Wendungen und ihre
Übersetzung ins Usbekische"**

Ilmiy rahbar: Sapayeva R. B.

Urganch 2013 yil

Mundarija:

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB: FRAZEOLOGIK IBORA TASNIFI VA ULARNING SEMANTIK KATEGORIYALARI.....	6
1.1. Frazelogik polisemiya.....	9
1.2. Frazelogik antonomiya.....	12
1.3. Frazelogik sinonimiya.....	14
IKKINCHI BOB: FRAZEOLOGIK IBORALARNING TARJIMADA BERILISHI.....	20
2.1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish.....	22
2.2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish.....	30
2.3. Kalka usulida tarjima qilish.....	32
2.4. Tasviriy usulda tarjima qilish.....	37
UCHINCHI BOB: FRAZEOLOGIK IBORALAR TURLARI	42
3.1. Frazelogik butunlik.....	43
3.2. Frazelogik chatishma.....	46
3.3. Frazelogik birikma.....	48
XULOSA.....	55
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.

Mazkur bitiruv malakaviy ish „Die deutschen Wendungen und ihre Übersetzung ins Usbekische“ mavzusiga bag'ishlangan. Frazeologik ibora va ularning o'girilish jarayoni doimo murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Frazeologik iboralar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib kelishi va bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarning boshqa tillarda turlicha ma'no anglatishi bilan ham dolzarbdir. Chet tili o'rganishda, ayniqsa, so'zlashuv va badiiy uslubda frazeologik iboralarning o'rni nihoyatda kattaligiga qaramasdan, hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan.

Mavzuning o'rganilish darajasi va yangiligi

Ilg'or tilshunos olimlarning fikricha, har qanday tarjima ilmiy umumlashtirishga ehtiyoj sezgan holda, tarjimonning asliyatga aloqador barcha manbalarni ilmiy ravishda aks ettirishi lozim.

O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san'atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tug'diradi. Chunki badiiy mahorat sirlarini har tamonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina mazkur ijod mahsuli bo'lmish fikrni asliymonand tarzda ifoda etish san'atini o'zida puxta singdirib olgan iste'dod sohibi sifatida to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o'ta mas'uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin.

Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirm talqin etish zarurati san'atkor oldiga asarning badiiy nafosati va milliy hususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birliklari tanlash vazifasini qo'yadi.

Ishning maqsadi va vazifalari

Ishning maqsadi quyidagicha:

- Nemischa frazeologik iboralar o'zbek tiliga o'girishdagi qiyinchiliklarni aniqlash ;
- Frazeologik iboralarni to'g'ri qo'llashni o'rganish;
- Iboralardan unumli foydalanish va nutq ta'sirchanligini oshirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Iboralarning tarjimasini o'rganish;
- Nutqda iboralarni to'g'ri va aniq qo'llashni tadqiq qilish;

Ishning metodologiyasi asosi va metodlari

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishda qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tilshunos olimlarning ishlaridan foydalanildi. Jumladan, Muxtor Umarxo'jayev, Qambarali Nazarovlarning „Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at'i, Qudrat Musayevning „ Tarjima nazariyasi asoslari”, Zohid Jumaniyozovning „ Tarjima nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua”si, Anna Segersning “Die Toten bleiben jung” ya'ni “Barhayot o'liklar“ Fozila Sulaymonovaning asarlaridan hamda Sh.Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”va M.D.Stepanova,I.I.Černyqevaning “Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache” kitobi asosiy manba bo'lib xizmat qildi.Yordamchi manba sifatida turli frazeologik va izohli lug'atlardan foydalanildi. Mazkur bitiruv-malakaviy ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy fikrlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- Frazeologik birliklarni tahlil qilish;
- Misollar yordamida nazariy fikrlarni isbotlash.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati:

Mazkur bitiruv-malakaviy ishning nazariy ahamiyati: ishda to'plangan va umumlashtirilgan g'oyalar avvalgi nazariyalarni to'ldiradi, bundan keying ishlarga manba sifatida xizmat qiladi. Ishning amaliy ahamiyati:

Mazkur ish natijalaridan Oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda, maktablarda , seminar, maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning joriylanishi

Bu mavzu asosida maqola chop qilindi, ishning dastlabki himoyasi nemis tili kafedrasida o'tkazildi.

Mazkur ish asosida qo'llanma yaratish mumkin.

Ishning manbasi

Tadqiqot ob'ekti sifatida quyidagi materiallar xizmat qildi:

Anna Segersning "Die Toten bleiben jung" asari va uning o'zbek tilidagi tarjimasi (tarjimani taqqoslashda), frazeologik lug'atlar, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" kitobi va M.D.Stepanova, I.I.Černyqevaning "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache" kitobi asosiy materiallar bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning tuzilishi Mazkur bitiruv-malakaviy ish: kirish, uch bob va xulosadan iborat. Birinchi bob "Frazeologik ibora tasnifi va ularning semantik kategoriyalari" ga bag'ishlanadi. Unda frazeologik polisemiya, frazeologik antonomiya, frazeologik sinonimiya kabi masalalar ko'riladi. Ikkinchi bob "Frazeologik iboralarning tarjimada berilishi" deb nomlanadi. Bu bobda ekvivalentlar vositasida tarjima qilish, muqobil variantlar yordamida tarjima qilish, kalka usulida tarjima qilish, tasviriy usulda tarjima qilish muammolari o'rganiladi. Uchinchi bobda esa frazeologik iboralarning turlariga bag'ishlanib, unda frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, frazeologik birikmalar xususida gap boradi. Xulosada esa butun ish yuzasidan qilingan xulosalar tavsiloti bayon qilinadi.

I.BOB.

FRAZEOLOGIK IBORA TASNIFI VA ULARNING SEMANTIK KATEGORIYALARI

Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri iboralardir. Ikki va undan ortiq so'zlardan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'noni ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligi **ibora (frazеologik birlik)** deyiladi.

Ibora tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so'z birikmasi kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra iboralar turg'un so'z birikmasi deb ham yuritiladi.

Masalan, xamirdan qil sug'urganday iborasi "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz" (etwas aus den Ärmeln schütteln) ma'nosini, ko'ngil bermoq (jmdn. ins Herz schließen) "sevmok" ma'nosini, qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasi "yuvosh" ma'nosini bildiradi.

Ibora tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so'z birikmasi kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra iboralar turg'un so'z birikmasi deb ham yuritiladi.

Masalan, o't bilan o'ynashmok (mit dem Feuer spielen), yaraga tuz sepmok (Öl ins Feuer gießen), tirnok orasidan kir izlamok (ein Haar in der Suppe finden), tomdan tarasha tushganday (blinder Zufall), aravani quruq olib qochmok (einen Abstecher machen).

So'z birikmasining tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi. Iboraning tarkibidagi so'zlar esa o'z leksik ma'nosi bilan qatnashmaydi, ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Ba'zan ibora so'z birikmasi bilan teng kelib olishi mumkin. Bunday holatda ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo'ladi.

Iboralar ham so'zlar kabi ifoda va ma'no butunligiga ega. So'zning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini esa so'zlar tashkil etadi.

Masalan, farzand- ko'zning oqu-qorasi, ulug'lamoq-ko'kka ko'tarmoq.

Iboraning o'ziga xos ma'no tononiga ham ega. Iboradan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'zlardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay umumlashma, obrazli, ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

Iboralarning quyidagi hususiyatlari mavjud:

- Iboralar ahamiyati va qo'llanilishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi.
- Iboralar ko'chma ma'no ifodalaydi va ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'ladi.
- Iboralar gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi.
- Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so'zlarni kiritish yoki tarkibidagi so'zlarni o'zgartirishi mumkin:

Ko'zi tushdi- ko'zi menga tushdi;

Burni ko'tarilgan- burni ko'tarilib ketibdi, burni ko'tarilibdi va h.k.

Iboralar ko'proq so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Nutqda ko'p uchraydigan iboralar aktiv iboralar sanalib, ular nutqda kam uchraydigan (passiv) iboralar bilan sinonimik, antonimik munosabatda, ko'p ma'noli, omonim, shaklan o'xshash bo'lishi mumkin. Bu frazeologik iboralarning semantik kategoriyalariga xos jihatdir.

Biz nemischa frazeologik iboralarning semantik kategoriyalarini tahlil qila turib, ularning ayrimlariga to'xtaldik va shuning barobarida bir necha misollarni quyida keltirib o'tishni joiz deb topdik.

Bu yerda omonim va paronim iboralarni ko'rishimiz mumkin:

Omonim iboralar:

Dam bermoq- yel haydamoq; hordiq bermoq;

Ko'z yummoq- o'lmoq; e'tibor bermaslik;

Boshiga ko'tarmoq- e'zozlamoq; to'palon qilmoq;

Gapida turmoq- so'zida turmoq, lavzida turmoq; so'zida qattiq turmoq;

Dam bermoq- havo, yel; istirohat;

Ichag(i) uzildi- kulib ichagi uzildi; ovqatlanmaslikdan ichagi uzildi.

Paronim iboralar:

Yuragi tars yorilib keta yozdi- sabr-chidami tugamoq;

Yuragi qoq yorila yozdi - sevinganidan qattiq hayojanlanmoq;

Yetti uxlab tush(i)ga kirmaslik-haqiqatda bo'lmaslik;

Yetti uxlab tushida ko'rmaslik- hayoligayam keltirmaslik.

1.1. Frazelogik polisemiya

Bittadan ortiq ma'noni anglata olish til birliklariga hos hususiyat bo'lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar anchagina; to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi. Masalan, *bosh(i)ga qilich kelsa* ham iborasi bitta ma'noni, *aql(i) yetadi* iborasi ikkita ma'noni, *bo'yn(i)ga qo'ymoq* iborasi uch ma'noni, *qo'lga olmoq* iborasi esa to'rt ma'noni anglatadi.

Masalan: *jmdn. "auf den Arm nehmen"* (*umg*) iborasi bitta ma'noni, "*wieder auf die Beine kommen*" iborasi ikkita ma'noni, "*jmdn.(etwas) zu Fall bringen*" iborasi uch ma'noni, "*jmdn. im Stich lassen*" iborasi to'rta ma'noni, "*mit jmdm. (etwas) fertig werden*" iborasi besh ma'noni anglatadi.

jmdn. auf den Arm nehmen (umg)

1.kimnidir kalaka qilmoq, kimnidir ustidan kulmoq

1.razigrivat kogo-l

wieder auf die Beine kommen

1.snova vstat na nogi, popravitsya

1. oyoqqa turmoq, tuzalib ketmoq

2. popravil svoi (finansovye) dela

2. o'zini o'nglamoq, (moliyaviy ishlarini) tiklamoq

jmdn. (etwas) zu Fall bringen

1.smesti, svergnut kogo-l.

1. amaldan tushirmoq, kovushini to'g'irlab qo'ymoq

2. podorvat ,rasstroit (kakoe-l. delo, plan), sorvat

2. barbod qilmoq, (biror ishni, rejani) puchga chiqarmoq

3. soblaznit (devushku)

3. boshini aylantirmoq (qiz bolani)

„jmdn. im Stich lassen“

1. kimnidir kulfatda qoldirmoq

1. ostavit brosit kogo-l na proizvol sudbi ostavit v bede kogo-l

2. o'z holiga tashlab qo'yimoq, eätibordan qoldirmoq

2. predostavit kogo-l. camomu-sebya, perestat obrashat vnimaniya

3. hoinlik qilmoq, hiyonat qilmoq

3. izmenyat komu-chevo, predavat kogo-l; otstupatsya ot kogo-chevo;

4. kimnidir noqulay ahvolga solib qo'yimoq; mushlul ahvolga solmoq

4. podvodit kogo-l (stavit ego v trudnoe polojenie);

mit jmdm. (etwas) fertig werden

1. pokonchit, razdelatsya s kem-chem

1. kimnidir tiyib qo'yimoq, ovozini o'chirib qo'yimoq

2. spravlyatsya s kem-chem

2. uddasidan chiqmoq, bas kelmoq

3. preodolevat, peresilivat, prevozmogat chto-l.

3. ustun kelmoq, yengib chiqmoq

4. umet ladit s kem-l.

4. murasyi madora qilmoq

5. obxoditsya bez kogo-htoyu

5. ilojini (qilmoq) topmoq

Frazeologik polisemiyada ham, huddi leksik polisemiyada bo'lganidek, bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma'no o'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki nhar qanday farzeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi. Masala, ikki qo'l (i) ni burn (i) ga tiqib iborasi ikki ma'noli: 1) "quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay", 2) "bekorchi bo'lib, biror foydali mehnat bilan shug'ullanmay". Bu ma'nolar o'zaro bog'lanmaydi, chunki asosida har xil obraz, boshqa-boshqa voelik yotadi: birinchisida band qo'l bilan borib (nimadir olib borib), bo'sh qo'l bilan qaytish, ikkinchisida esa qo'lni biror yumush bilan band qilmaslik.

Frazeologik ma'nolarining bir-birlaridan o'sib chiqmaganligini ba'zan ibora tarkibidagi so'z komponentlarning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan, *hayol (i) ga kelmoq* iborasi ikki ma'noli: 1) "o'ylanmoq, idrok qilmoq, faxmlamoq", 2) "hotirasida tiklanmoq". Bu ibora tarkibidagi *hayol* so'zi birinchi frazeologik ma'noda "o'y, fikr" ma'nosi bilan, ikkinchi farzeologik ma'noda esa "hotira" ma'nosi bilan qatnashgan.

jmdn. über die Klinge springen lassen bu iborada ham ikkita ma'no bor: 1., *jmdn. töten* "(kimnidir o'ldirmoq); 2., *jmdn. wirtschaftlich, beruflich vernichten* "(kimnidir iqtisodiy, mansabdan tushirmoq).

jmdm. auf die Beine helfen: 1., "einem Gestürzten wieder aufhelfen"; 2., *jmdm. helfen, eine Schwäche od. Krankheit zu überwinden*"; 3., *jmdm. finanziell helfen, damit er wider wirtschaftlich vorankommt*".

die Tapeten wechseln ikki ma'noni anglatadi:

1.“umziehen“(ko’chmoq); 2.“sich am Arbeitsplatz, im Beruf verändern (ish joyini o’zgartirmoq)“.

Bu „*die Tapeten wechseln*“ iborasi W. Fridrixning „*Moderne deutsche Idiomatik*“ asarida uchta ma’nosi bor: 1.“umziehen“(ko’chmoq); 2.“das Lokal wechseln“(joyini almashtirmoq); 3.“sich im Beruf verändern“ (kasbini o’zgartirmoq).

jmdm. schwillt der Kamm (..): 1.“jmd. wird überheblich, bildet sich etwas ein“;

2.“jmd. gerät in Zorn, wird wütend“(kimnidir jahlini chiqarmoq).

1.2. Frazelogik antonimiya

Antonimiya til biliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo’lib, iboralarda ham so’zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug’aviy ma’nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiya bir iboraning ma’nolarini o’zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so’zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: *savol bermoq* va *javob qaytarmoq*; *yerga urmoq* va *ko’kka ko’tarmoq* kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so’z-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so’z-komponentlar o’zaro antonym. Quyidagi antonym iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar – ayni bir so’zning o’zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonym so’zlar: *yurag(i) keng* va *yurag(i) tor*. Boshqa bir misol : *ko’ngl (i) joyiga tushdi* va *yurag(i)ga g’ul’ula tushdi*. Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so’z, birinchisi o’zaro sinonim, ikkinchisi esa o’zaro ma’no munosabatini hosil qilmaydi. Ko’rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so’z-komponentlar bu iboralarning o’zaro antonim bo’lishida muhim ro’l o’ynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim so’z-komponentlar qatnashmaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lug’aviy ma’no asosida belgilanadi.

Sinonimiyada bo'lganidek, antonomik munosabat ham polisemantik iboralarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi.

Polisemantik iboraning bir ma'nosiga antonim bor bo'lishi, boshqa bir ma'nosiga esa yo'q bo'lishi mumkin. Masalan, savol bermoq monosemantik iborasiga besh ma'noli javob bermoq iborasining birinchi ma'nosi antonim (qolgan to'rt ma'nosiga frazeologik antonim yo'q).

ein warmes Herz haben "tiefe Gefühle haben, Liebe empfinden"(sevgiga beriluvchan, hissiyotga to'la)

-ein kaltes Herz haben „kalt, gefühllos sein“(sovuq, hissiz bo'lmoq)

ein weites Herz haben „großzügig sein“ (qo'li ochiq, himmatli)

-ein enges Herz haben „nicht großzügig sein“(qo'li ochiq, himmatli bo'lmaslik)

jmdn. in den Sattel heben „jmdn. in eine einflussreiche Position hineinbringen“

- *jmdn. aus dem Sattel heben* “ jmdn. aus einer einflussreichen Position drängen“.

jmdm. die Zunge binden – jmdm. die Zunge lösen;

auf dem richtiger Dampfer sein – auf dem falschen Dampfer sein;

im Vordergrund stehen – im Hintergrund stehen;

groß von jmdm. denken – klein von jmdm. denken;

aus demselben Holz geschnitten sein – aus anderem Holz geschnitten sein

jmdm. die Hände {binden, lösen}

jmdm. die {kalte, warme} Schulter zeigen

etw. mit der {linken, rechten} Hand erledigen

etw. durch eine fremde Brille sehen;

-etw. durch eine eigene Brille sehen

grünes Licht „Handlungsfreiheit“;

-rotes Licht „Versagung“ der Handlungsfreiheit.

sich über etw. Kopfzerbrechen machen „sich über etw. Gedanken machen“(o'ylamoq);

sich über etw. kein Kopfzerbrechen machen „, sich über etw. keinen Kummer machen“ (biron narsa haqida qayg’urmaslik);

nicht auf den Kopf gefallen sein „nicht dumm sein“

auf den Kopf gefallen sein ; *etw. ist nicht von schlechten Eltern* „etw. hat Format“
lekin etw. ist von den schlechten Eltern; aussehen, als ob man kein Wasserchen könnte „ganz harmlos aussehen“, ammo *aussehen, als ob man ein Wasserchen trüben könnte*; *jmdm. nicht grün sein* „jmdm. nicht wohlgesinnt sein“ ammo *jmdm. grün sein*.

Semantik va stilistik jihatdan bir xil bo’lgan iboralar:

jmdm. den Kopf waschen usg.

jmdn. in den Himmel heben usg.

„jmdn. scharf zurechtweisen“

„jmdn. übermäßig loben

“kimnidir juda haq deb bilmoq“

„kimnidir ortiqcha maqtamoq“

Semantik va stilistik jihatdan har xil bo’lgan iboralar:

jmdn. auf der Latte haben

jmdn. über den grünen Klee loben usg.

„jmdn. nicht leiden können“

„jmdn. übermäßig loben“

„kimgadir azob bermaslik“

„kimnidir ortiqcha maqtamoq“

Misol uchun quyidagi maqolni ko’rishimiz ham mumkin:

Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm „, jmd. ist in den negativen Anlagen den Eltern sehr ähnlich“(qush uyasida ko’rganini qiladi) unga antonim sifatida:
Der Apfel rollt oft weit vom Stamm).

1.3.Frazeologik sinonimiya

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo’lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo’lmaydi. Ayni nbir ma’nolilikni teng ma’nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma’no o’zanidan tashqari, o’ziga hos ma’no qirrasiga ega bo’ladi.

Sinonim iboralarni tahlil qilishda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish lozim.

- **ma'no jihatdan o'xshash (sinngleich)**

das Pferd beim Schwanz aufzäumen – den Aal beim Schwanz fassen- „eine Sache verkehrt anfangen“- ishini teskarisidan (aksidan) boshlamoq.

- **ideografik**

einen Affen (sitzen) haben- "betrunken sein"

einen (kleinen) Aal haben - "leicht betrunken sein"

mast (shirakayf) bo'lmoq

- **uslubiy**

die Augen schließen- ins Gras beißen -"sterben"- o'lmoq

- **hududiy bog'liqlik**

arm sein wie eine Kirchenmaus – machitda kambag'al sichqonday.

Shakliga ko'ra frazeologik sinonimlarning quyidagi turlari farqlanadi.

1. Bir xil tuzilishga ega bo'lgan frazeologik sinonimlar

Masalan, in die Pilze gehen-in die Nüsse gehen

Bu ikkala ibora bir xil tuzilishga ega bo'lib, „o'lmoq“ ma'nosini anglatadi.

2. Turli xil tuzilishga ega bo'lgan frazeologik sinonimlar

Holz in den Wald tragen – Wasser im Siebe tragen

Bu ikkala ibora turli xil tuzilishiga ega bo'lib, „bo'lmag'ur ishga urinmoq, behuda mehnat qilmoq“ ma'nosini anglatadi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan bie ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq- yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko'kka sovurmoq- kuli ko'kka sovurildi* iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi (“butunlay yemrilmoq, yo'q qilmoq”). Bu sinonimlar, boshqa belgi-hususiylaridan qat'i nazar, ma'no

qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli. Frazеologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz; bir shingil; bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdim olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so'z komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tavsiloti bilan mayday-chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jon (i)ning hovuchlab* va *yurag(i)ni hovuchlab* – sinonim iboralar : bir leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va ular o'zaro sinonim emas. Ko'ngil(i)ga tugmoq bilan yurag(i)ga tugmoq o'zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim.

Sinonimiya – ma'no saosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik *tan olmoq* iborasiga polisemantik (uch ma'noli) *bo'yin(i)ga olmoq* iborasi birinchi ma'nosida sinonim bo'ladi. Bu uch ma'noli iboraning ikkinchi ma'nosiga sinonim yo'q, ammo uchinchi ma'nosiga *zimma(si)ga olmoq* iborasi

birinchi ma'nosida sinonim (keyingi ibora uch ma'noli bo'lib qolgan ikki ma'nosiga sinonim yo'q).

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, *ta'zir(i)ni yemoq*, iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, *bir yostiqaqqa bosh qo'ymoq* iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, *es(i)ga tushmoq* iborasi qatnashadigan uya esa to'rt sinonimdan iborat.

Bir uyaga birlashuvchi frazeologik sinonimlar nutqda oz-ko'p ishlatilishi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, yuqorida ta'kidlangan to'rt sinonimli uyada ularning nutqda uchrash nisbati shunday : 50:7:3:1 (to'plangan faktik materialdagi miqdori : 250:35:15:5)

Sinonim iboralarning bir xil strukturali va har xil strukturali turlari mavjud:

a) bir xil strukturali:

in die Pilze gehen, in die Nüsse gehen } „verlorengehen, verschwinden“

in die Binsen gehen, in die Wicken gehen } „ertrinken und verderben“

b) har xil strukturali :

einen Vogel haben }

bei dem piept's wohl nichtt alle Tassen } „nicht recht bei Verstand sein“

im Schrank haben } „aql idrokda haq bo'lmaslik“

bei jmdm. spukt es im Kopf }

leeres Stroh dreschen }

Holz in den Wald tragen } „vergebliche, unnütze Arbeit tun“

Wasser im Siebe tragen } „behuda, foydasiz ish qilmoq“

Wasser mit einem Sieb schöpfen }

jmdm. geht ein Licht auf } „jmd. versteht, durchschaut plötzlich etw.“

jmdm. geht ein Seifensieder auf } „kimdir biron narsaga tez qarab payqamoq“

Bunday misollarni ko'p keltirishimiz mumkin:

Alter Mann (od. Alte Oma) ist}

doch kein D-Zug}

„ich kann nicht so schnell, wie du möchtest“

Alter Mann (od. alte Oma)ist}

„sen xohlaganday tez bajara olmayman“

doch kein Düsenjäger}

„nicht recht bei Verstand sein“ iborasi og'zaki tilda ko'plab variantlaini uchratishimiz mumkin, yoshlar orasida: *nicht alle Lichter am Baum haben;*
eski sinonimi esa *nicht alle auf dem Christbaum haben;*

Ot bilan bog'liq bo'lgan sinonimik iboralarga :

den Mund halten, usg.}

„schweigen“

den Rand halten, salopp, derb}

„jim turmoq, indamay turmoq“

die Schnauze halten, salopp, derb}

jmdm. fällt ein Stein vom Herzen}

„jmd. ist sehr erleichtert über etwas“

jmdm. fällt ein Steinbruch vom Herzen}

„kimdir biron narsadan juda yengillashmoq“

Nur die allerdümmsten Kälber wählen sich den Schlächter selber (Sprichw., Gemeinspr.)

Nur die allerdümmsten Kälber wählen sich den Metzger selber (schwäb., bair.)

ein Haar – Haare in der Suppe finden(tirnoq ostidan kir qidirmoq);

die Hand – die Hände bei etw. im Spiel(e) haben;

etw. brennt jmdm. auf den Nägeln – etw. brennt jmdm. unter den Nägeln;

nichts auf den Rippen haben – nichts zwischen den Rippen haben;

groß und klein – klein und groß(katta va kichik);

auf Leben und Tod – auf Tod und Leben (yo hayot, yo mamot)

alles über einen Leisten schlagen} „alles gleich behandeln und dabei wichtige

	Unterschiede nicht beachten“, usg.
<i>alles über einen Kamm scheren}</i>	(hamma narsaga bir xil munosabatda bo'lmoq, muhim farqlarga e'tibor bermaslik)
<i>alles in einen Topf werfen}</i>	
<i>Yoki:</i>	
<i>Mit jmdm. ein Hühnchen zu</i>	„jmdn.wegen etw. zur Rechenschaft ziehen müssen“, usg.
<i>Rupfen haben</i>	
<i>Mit jmdm. eine Rübe zu</i>	
<i>schaben haben</i>	
<i>mit jmdm. ein Nüsschen zu</i>	
<i>knacken haben</i>	

II.BOB.

FRAZEOLOGIK IBORALARNING TARJIMADA BERILISHI

Tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo'lmish frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o'ta murakkab va, shu bilan birga, juda ma'suliyatli masalardan hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo'lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga- ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy hususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi.

Asl nusxa va tarjima tillari frazeologizmlarining tabiatini qiyosiy o'rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo'l va imkoniyatlarini belgilash to'laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Tarjima tilida tanlangan muayyan frazeologik birlikning asl nusxa tarkibida uchragan frazeologizmga ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos kelishi yoki kelmasligini ilmiy-matniy tahlil asosidagina muayyan qilish mumkin.

Leksik birliklar singari frazeologizmlar ham ko'p ma'noli va ko'pvazifali ekanliklari tufayli, mazmun jihatidan mos ikki til birliklari tarjimada har doim ham bir-birlarini almashtiravermaydilar. Muayyan matniy holatda bir-birlarini almashtira oladigan frazeologik ekvivalentlar yoki muqobil variantlar o'zga bir matniy holatda ma'no belgilari yoki uslubiy vazifalari jihatidan bir-birlaridan farq qilib qolishlari mumkinki, san'atkorning o'z ma'suliyatiga ilmiy-ijodiy

munosabatda bo'lishigina asl nusxaning tarjimada noto'g'ri talqin etib qo'yilishi havfini bartaraf etadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida maujasssamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtiraishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslubiy jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta.

Obrazlilikgi ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning muqobil lisoniy vositalar yordamida o'girilishi asl nusxa mazmuniy- uslubiy hususiyatining tarjimada qayta yaratilishini ta'minlaydi. Ammo ba'zan obrazligi ma'lum darajada xiralashib qolgan frazeologizmlarning o'zidek hususiyatiga ega lisoniy vositalar orqali eams, balik obrazlilikgi to'la barhayot barqaror birikmalar yordamida yoki, aksincha, obrazlilikgi to'la barhyot barqaror birikmalar yordamida yoki, aksincha, obrazlilikgi ochiq- oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizm- larning ushbu hususiyati so'nibroq qolgan lisoniy vositalar orqali adekvat talqin etilishining guvohi bo'lamizki, bunday hollarda ikki til birliklari o'rtasidagi pragmatik muofiqlik moslashtiruvchi vositalar qo'shish yo'li bilan vujudga keltiriladi.

Tarjimada asliyatda qo'llanilgan frzeologik birlik ma'no va uslubiy vazifasini matn tahlili asosida muayyan qilib, tarjimada unga pragmatik mos lisoniy vosita tanlash ikki til birliklarining kommunikativ monandligini vujudga keltiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning „Boy ila xizmatchi“ pyessasida tabaiatan hazil mutoyibaga oshufta Xolmat nutqida badxo'ylik, nohayrixohlik ma'no belgisidan holi „tuyog'ingni shiqillat!“ farzeologik birligi qo'llanilgan bo'lib, asarning turli yillarda amalga oshirilgan uchta tarjimasida mazkur ibora turlicha o'grilgan : „Nu stupay jivey!“, „A nuka,unosi poskoree nogi!“, „Nu, jivee poyelkivay kopitfmi!“.

Taniqli tarjimashunos olim M.Rasuliy mazkur tarjima variantlarini qiyosiy tahlil qilar ekan, bieinchi tarjimini asliyatdagi birlikka hos obrazlilikdan holiligi,

ikkinchisi o'ta adabiyliigi, xolmat nutqiga hos sho'xlik ohangini o'zida mujassamlashtirmagani, uchinchisini esa quvnoqlik bilan yo'g'rilgan Xolmatona dag'al xitobni aynan aks ettirganini qayd etadi.

Kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, ikki til obrazli yoki hissiy-ta'sirchan iboralarini, mazmuniy yaqinliklarini hisobga olib, tarjimada o'zaro almashtiraverish pragmatik adekvatlikning ta'minlanmay qolishiga olib kelishi mumkin. Iboralarning haqiqiy ma'no va uslubiy vazifalari chuqur matniy holatda o'zaro almashinadigan birliklar boshqa nutqiy vaziyatda qo'shimcha ma'no belgilari kasb etib, bir-birlarining o'rnini qoplay olmasliklari tabiiy hol.

Bundan tashqari, ko'pgina frazeologizmlar hamma vaqt ham o'zlarining an'anaviy ma'no va vazifalarida qo'llanilavermasdan, badiiy nutq tarkibida goho shakl va mazmun o'zgarishlariga uchragan tarzda ishlatiladilarki, bu hol ularga qo'shimcha uslubiy vazifa baxsh etib, tarjima jarayonini yanada mushkullashtiradi.

Til birliklari kasb etadigan bunday kontekstual ma'no va vazifalarni to'laqonli talqin etish ma'suliyati tarjima tilida imkon qadar muqobil nutqiy-obrazli vositalar tanlash zaruriyatini tug'diradi.

Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil yo'l bilan – asliyat tilidagi birlikka komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma'no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa hossalari farq qilgani holda, ma'no va uslubiy vazifasi oixshash muqobil variantlar, qal'qa usulida va tasviriy yo'sinda tarjima qilinadilar.

2.1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish.

Frazeologik birliklar tilning leksik birliklariga nisbatan murakkab tarkibli lisoniy vositalardir. SHu sababli tarjimada ularni adekvat talqin etish tarjima amaliyotining murakkab va ma'suliyatli masalalaridan hisoblanadi. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis tili lug'at tarkibidagi frazeologik birliklarni tahlil qila turib,ularning o'zbek tilidagi tarjimasiga to'xtaldik.Masalan nemischa **"(wie) im siebenten Himmel sein** va **Öl ins Feuer gießen"** frazeologik birliklar tarjimasi "Nemischaruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at"da quyidagicha yoritilgan.

(wie) im siebenten Himmel sein

bit na sedmom nebe, bit na verxu blajenstva

boshi ko'kka (osmonga) etmoq, og'zi qulog'ida bo'lmoq, cheksiz farog'atda yashamoq (2; 64)

Seitdem er seine letzte Prüfung gut bestanden hat, ist er im siebenten Himmel.

Öl ins Feuer gießen

podlivat masla v ogon

yaraga tuz sepmoq (2;101)

Über das Verhalten seines Freundes ist er empört, und wenn Sie ihm jetzt noch von dessen Unterschlagungen berichten, so wurden Sie damit Öl ins Feuer gießen.

Lekin biz **"(wie) im siebenten Himmel sein"** va **"Öl ins Feuer gießen"** frazeologik birliklarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, **"(wie) im siebenten Himmel sein"**(**ettinchi osmonda bo'lmoq**) ma'nosini, **"Öl ins Feuer gießen"** (**olovga yog' sepmoq, alangaga yog' quymoq**) ma'nosini anglatadi va albatta bu frazeologik birliklar o'zbek tili lug'at boyligida mavjud bo'lib, o'zbek xalqi ularni o'z nutqida keng qo'llaydi va kundalik hayotida ishlatadi.

Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil yo'l bilan tarjima qilinadi.(1;186)

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish.

Bunda ikki til frazeologik birliklarining bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi nazarda tutiladi.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish.

Bunda tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikni ekvivalenti bo'lmagan holda, faqat ma'no va uslubiy vazifasi jihatlaridan mos bo'lgan frazeologik birliklarni topish va ular bilan almashtirish tushuniladi.

3.Kalka usulida tarjima qilish.

Tarjima amaliyotining kalka,ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga bir tildagi frazeologik birlikni o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmagan holda murojaat qilinadi.

4.Tasviriy usulda tarjima qilish

Bir tildagi frazeologik birlikni o'zga tilda ekvivalenti yoki muqobil varianti bo'lmaganda, kalka yordamida tarjima qilishning imkoni topilmaganda, mazkur usul yordamida birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib o'tiladi.

Asosan bir tildagi frazeologik birlikni yana boshqa bir tillarda ekvivalenti bo'lishi, bu o'sha xalqlarning yashash tarzi,turmush sharoitlari va urf-odatlarida mushtaraklik borligidan dalolat beradi. Frazeologik birliklar ham boshqa til vositalari kabi turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari asosida vujudga keladi va ularning negizida bir xil hayotiy tajribaga asoslangan tushunchalar yotadi.

Nemis tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjimasini o'rganayotib, nemis tili lug'at tarkibidagi frazeologik birliklarning o'zbek tilidagi mutlaq ekvivalentlariga duch keldik, shuning barobarida ayrim misollarni quyida keltirib o'tishni joiz deb topdik.

jmnds. rechte Hand sein

bit chey-l. pravoy rukoy

kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq; kimnidir ishongan tog'i bo'lmoq

Jahrelang ist Lobar die rechte Hand ihrer Schwiegermutter gewesen.

(Yillar davomida Lobar qayinonasining o'ng qo'li edi.)

wie Hund und Katze leben

jit kak koshka s sobakoy

it-mushuk bo'lib yashamoq

Ich weiß, dass sie seit einem Jahr wie Hund und Katze leben.

(Men ular bir yildan beri it-mushuk bo'lib yashayotganliklarini bilaman.)

wie Hund und Katze sein

bit kak koshka s sobakoy

it- mushuk bo'lmoq

Die Melzer sagte, sowohl durch die Eier verärgert wie durch die Schweigsamkeit dieser Frau, die sei für den eigenen Mann, den Triebel zu alt, der ginge auch fremd, sie lasse sich auch sonst bei Geschke nicht blicken, die Männer seien wie Hund und Katze. (3;69)

Xotinnig olib kelgan tuxumlari va indamasdan chiqib ketganiga g'ashi kelgan Meltser xonim, bu ayol keksayib qolib, eri Tribelga yoqmagani uchun eri chakana qilib yuradi, eringiz bilan buning eri it-mushukday, shuning uchun bu xonim Geshkeni ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qiladi, dedi.

aus einer Mücke ei nen Elefanten machen

delat iz muxi slona

pashshadan fil yasamoq

Hör auf zu schimpfen, du machst wieder aus einer Mücke einen Elefanten. Das ist die Sache nicht wert.

Koyishni bas qil, sen yana pashshadan fil yasayapsan. Bu arzimagan ish.

Yuqorida keltirilgan ikki til frazeologik ekvivalentlari ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan bir-birlariga mos keladi va ular tarjima jarayonida biri ikkinchisini barcha nutqiy vaziyatlarda bema'lol almashtraverishi mumkin.

Ba'zi ikki til frazeologik ekvivalentlari ayrim mantiqiy holatlarda bir birlarini almashtira olmaydilar. Ko'p ma'noli ikki til frazeologik birliklarning ayrim ma'no va uslubiy vazifalari o'xshasa, ba'zilar farq qiladi.

Masalan, bir-birlariga ham moddiy, ham ma'no va uslubiy vazifalari o'xshash nemischa „Hunde, die viel bellen, beißen nicht“ va o'zbekcha „it hurar, karvon o'tar“ birliklarining doim bir xil ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanishlari mumkin bo'lgani holda, baynalmilal hususiyatga egadir.

Qiyoslanayotgan tillar frazeologik ekvivalentlarining ayrimlari bir-birlariga barcha jihatlar bilan o'xshasalarda, ular barcha mantiqiy holatlarda o'zaro almashina olmaydilar.

Ba'zan matn sharoiti tarjimada asliyatdagi birlikka mos lisoniy vositadan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Bu goho tarixiy taraqqiyot natijasida ma'no o'zgarishiga yuz tutgan ko'p ma'noli tillararo ekvivalentlarga taalluqlidir. Masalan, „*ko'z quloq bo'lmoq*“ tushunchasini ifoda etib, o'zbekcha „*quloqni ding qilmoq*“ iborasiga ma'no va uslubiy jihatlaridan mos keladigan „*navostrit ushi, nastorojitsya*“ frazeologik birligi ayrim holatlarda „*ehtiyot bo'lmoq, hushyor, oghoh bo'lmoq*“ ma'nosini ifoda etadiki, bunday holda u yuqorida keltirilgan ekvivalentga emas, balki „*qadaminmi bilib bosmoq*“ muqobil variantiga mos keladi.

Modomiki frazeologik iboralar muayyan ma'no va uslubiy vazifani o'zlarining doimiy leksik tarkiblari vositasida ifoda etar ekanlar, ya'ni muayyan ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilgan komponentlar bir-birlarining mavjudligini taqozo etarkanlar, tarjimada ayni tarkibning bir butun holda iste'foda etilishi maqsadga muvofiqdir. Tarjima tilidagi iboraning hatto bitta

komponentini uning sinonimi yoki boshqa biror soʻz bilan almashtirilib qoʻyilishi, yaʼni beasos ibora tarkibini buzish zaruriy mazmun va uslubiy vazifaning yaratilmay qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday nomatlub harakat tarjima tilida yo asliyat maʼnosi va uslubiy vazifasini aks ettira olmaydigan gʻayritabiiy birikmaning paydo boʻlishiga, yoki birlikning sifat oʻzgarishiga duchor boʻlishiga – uning mutlaqo oʻzgacha maʼno va vazifa ifodasi uchun xizmat qilishiga sabab boʻladi.

Ham moddiy, ham maʼno va uslubiy vazifa jihatlaridan oʻzaro mos ayrim frazeologik ekvivalentlar tarkiblaridagi baʼzi predmet nomlari bir-birlaridan son shakllari jihatidan farq qiladilarki, tarjima jaryonida ushbu tafovutli holatga ilmiy-ijodiy yondashish adekvat ifoda vositasi yaratishning birdan-bir garovi sanaladi. Zero, qoʻshimcha mazmuniy vazifa yuklamaydigan mazkur tafovut goho tarjimonlarni chalgʻitib, ularni xarfxoʻrlik sari yetaklaydi.

Jumladan, ikki teng mustaqil boʻlaklardan iborat boʻlib, yagona tushunchani anglatadigan „etik“, „yeng“, „qoʻl“, „oyoq“, „koʻz“, „quloq“ kabi soʻzlar oʻzbek tilida, predmetlarning har ikkala qismlari nazarda tutilgan taqdirda ham, til anʼanasiga muvofiq birlik shaklida uchrasalar, nemis, va rus tillarida ular koʻplikda ishlatiladilar (*Stiefel-sapogi, Ärmel- rukava, Hände- ruki, Füße- nogi, Augen- glaza- ushi*).

Tarjimada har qaysi til tarkibidagi komponentlarning anʼanaviy grammatik shakliga rioya qilishgina bayon etilgan fikrning nutq madaniyati doirasidagi ifodasini vujudga keltiradi. Oʻzbekcha „*devorning qulogʻi bor*“ barqaror soʻz birlikining tarjimada nemischa: „*die Wände haben Ohren*“ tarzida berilishi oʻzbek tili frazeologik birliklari meʼyorlarining buzilishiga, binobarin, anʼanaviy frazeologik birliklar ifoda etadigan obrazli umumlashmalarning barbod boʻlishiga olib keladi.

Bir –birlariga maʼno va uslubiy vazifa jihatlaridan mos qator frazeologik ekvivalentlar leksik tarkib jihatidan bir, goho ikki komponentga farq qiladilar. Bu

saosan turli xalqlar vakillarining hayot voqea – hodisalariga o'ziga hos tarzda yondashishlari o'z tasavurlari doirasida fikr yuritishlari bilan bo'g'liq bo'lib, ko'pgina narsa va hodisalar ular lavzida turlicha mazmun va ramziy ma'no kasb etadi. Bundan tashqari, bir xalq o'z frazeologizmi tarkibida hayotida bir xil tushunchani ifoda etadigan qator ma'nodosh so'zlarning biridan foydalansa, ikkinchisi boshqasidan foydalanishi mumkinki, natijada bir xil ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun hizmat qiladigan ikki til frazeologik ekvivalentlarning bittadan komponentlari farq qilib qoladi. Chunonchi, o'zbeklar ishning puxta, rejali bo'lishi lozimligi kabi tushunchani obrazli ifodalash uchun tikish niyatida bichilayotgan matoning yetti o'lchab, so'ngra kesilishi (yetti o'lchab, bir kes!) zarurligi kabi mubolag'a asosida vujudga kelgan barqaror so'z birikmasidan foydalansalar, bu o'rinda nemislar lavzida qo'llanadigan frazeologizmlar tarkibidagi son o'zbek tilidagidek „yetti“ emas, balki „bitta“dir. (Die erste Gedanke ist nicht immer das beste/Erst besinn es, dann beginn es). Eng og'ir yumushni nemislar tasavurrida „ot“ (wie ein Pferd arbeiten/ schuften), o'zbeklar nazarida „eshak“ (eshakday ishlamoq) bajaradi.

Tarjima jarayonidagi asliyatdagi lisoniy birliklarni moddiy jihatdan aniq aks ettirishga urinmasdan, ularning ma'no va uslubiy vazifalarini birinchi o'ringa qo'yib, tarjima tilining o'ziga xos vositalariga murojat qilishgina pragmatik adekvatlikni yuzaga keltiradi.

Tegishli ekvivalent tarkibidagi „ortiqcha“ unsur yonidagi boshqa tayanch komponent bilan birikkan xolda, uning manosini mantiqan to'ldiradi va, shu bilan birga, butun boshli iboraning til sohibi nuqtai nazaridan purmantiqligini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda tarjimomni o'z tilida tanlagan ekvivalent iborani asliyat tili vositasiga leksik tarkib va grammatik shakl jihatlaridan moslab qo'yish havfi kutadi. Bunday shakliy o'zgachalik tarjima tilida zaruriy mazmunni ifoda eta olmaydigan, noan'naviy so'z birikmasining paydo bo'lishiga, yoki ifodaning o'zgacha ma'no belgisi kasb etishiga olib keladi. Tarjimada pragmatik talqonlilikka erishish ma'suliyati esa, tarjima tilida fikrni nutqiy qolip doirasida

bayon qilishni talab qiladi. Ba'zan variantdorlik ham tarjimaviymushkulotlani keltirib chiqaradi. Variantdorlikning barcha darajalariga hos bo'lib, u ko'proq frazeologik birliklar tarkibida ko'poq uchrayd. Frazeologizm komponentlari tarkibida ko'zga tashlanadigan o'zgachalik odatda iboraning yangilanishiga olib kelmaydi, balki uni tilda mavjud variantiga nisbatan semantik jihatdan yanada ahamiyatliroq, salmoqdorroq qiladi.

Variantdorlik ichki shakli ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlar tarkibida ko'proq uchraydi. Bir xil qurilishli hamda ma'no va uslubiy vazifali frazeologik variantlar tarkibida o'zaro yaqin narsa va hodisalar nomlari qo'llaniladi. Bunday frazeologizmlar tarjima tilida ko'pincha bir-birlariga variant hisoblanib, tarjimada foydalanish mumkin bo'lgan o'z ekvivalentlariga ega bo'lmaydilar. Basharti mavjud variantlardan biri tarjima tilida unga leksik tarkib jihatidan mos ekvivalentiga ega bo'lsa, ikkinchisi undan bir, goho ikki komponentga farq qiladi. Masalan, agar ruscha “tsiplyat po oseni schitayut”, “Kur po oseni schitayut” frazeologik birliklarining birinchisi o'zbekcha ekvivalenti bo'lmish “Jo'jani kuzda sanaydilar” iborasiga ham mazmun, ham uslubiy vazifa jihatlaridan to'la mos kelsa, ikkinchisi undan bir (kur- jo'ja) komponentiga tafovut qiladi.

Tarjima jarayonida ona tili frazeologik iborasi tayanch komponentining boshqa sinonimi yoki vazifaviy unga yaqin biror so'z bilan frazeologizmning maqsadga muvofiq bo'lmagan tarzda o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu frazeologik ibora ta'sirchanligining susayishiga sabab bo'ladi.

Soxta frazeologik ekvivalentlar va tarjima. Leksik tarkib jihatidan bir-birlariga mos ikki til frazeologik goho ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan farq qiladilar. Bu hol har bir harfning moddiy hayotida uchrab va yuz berib turadigan narsa va voqea- hodisalarga mustaqil, o'zga tillar ta'siri va tazyiqsiz yondashishi, baho berishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, xalqlarning hayot tarsi hamda mulohaza va mushohadalarida ayrim nomushtarakliklar, tafovutlar namoyon bo'lib turadiki, ushbu omillar ularning ona tili zahiralaridan foydalanishlarida ham

ko'proq ko'zga tashlanadi. Muayyan xalq vakillari muayyan harakat, muomalamunosabat va yurish turishda bir hislat va hususiyatni ko'ra olsalar ushbu jihatlarga boshqa xalq farzandlari mutlaqo o'zgacha baho beradilar. Natijada muayyan xalq vakillari tomonidan ma'lum narsa yoki voqea-hodisa majoziy baho obyektibo'lganida bir tushunchani ifodalasa, o'zga xalq farzandlari lafzida u bo'lakcha baho kasb etadi, oqibatda leksik tarkib jigatidan bir-birlariga mos ikki til frazeologik birliklari xar xil ma'no va uslubiy vazifalar ifodasi uchun hizmat qiladi.

2.2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish.

Tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmaganda taqdirda adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalgam oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobillik munosabatida bo'ladi.

Masalan: 1. Mit einer Klappe zwei Fliegen schlagen

Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq

2. Überall ein Haar in der Suppe finden

Tirnoq ostidan kir qidirmoq

Modiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va iste'foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrini obrazli yoki hissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urf-odatleri, milliy-falsaviy qarashlari va o'ziga hos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi.

Muqobil variantlar tarjimada bir-birlarini almashtiraveradilar. Chunki mazkur birliklar tarkiblarida ularning o'zaro almashinuvlariga halal beradigan milliy hususiyatli so'zlar uchramaydi. Ammo tarjimonlar goho o'z tillarida mavjud imkoniyadan unumli foydalana olmasdan, ifodaning noadekvat talqiniga yo'l

qo'yadilar. Goho ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o'xshash bo'lib, boshqa so'zlari farq qiladi. Bunday o'zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea-hodisa, harakat-holat, hislat-hususiyatning obrazli yoki his-hayojonli ifodasi uchun yaratilgan bo'lib, bir-birlariga to'la mos keladilar.

O'zlarining frazeologik ma'nolariga ko'ra o'xshash, Grammatik qurilish jihatligiga nisbatan o'zaro yaqin ko'pchilik muqobil variantlar leksik tarkib tomondan bir-birlaidan batomom farq qiladilar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirlar. Shakli bilan ular o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar. Masalan, aslzoda jamiyat vakillari nemislar va ruslar nazarida "Blaues Blut" (zangori qon), "golubaya krov" hisoblansalar, o'zbeklar tasavvurida "Oq suyak" dirlar.

Ayrim frazeologik birliklarning foydalanish doirasi shunchalik keng bo'ladiki, asliyatdagi bitta frazeologizmga tarjima tilida ma'no belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan bir nechta sinonimik vositalar to'g'ri keladi. Tarjimon har bir holatda matn mazmuniga jiddiy kirib borib, muallif maqsadini tushunib yetib, nutqiy variantlardan eng mosini tanlaydi. Goho tarjima tili tizimida asliyatda qo'llanilgan frazeologizm ma'no va uslubiy vazifasini qoplaydigan tayyor muqobil variant topilmagan taqdirda, asliyatga kontekstual mos obrazli yoki his-hayajon ifodasi uchun qo'llaniladigan vosita qidirib topiladi. Bunday paytlarda mazmuniy va vazifaviy o'zaro teng qiymatli bo'lmagan, an'anaviy har xil muloqot vaziyatlari tarkibida foydalanadigan ikki til vositalari kontekstual muqobillik kasb etadi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar odatda hayotiy kuzatishlar zaminida paydo bo'ladi. Xalqlarning moddiy dunyoni tasavvur etishda esa o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo hech bir tilda frazeologik birliklar obyektiv borliqning barcha jabhalarini qamrab ola olmaydi. Masalan, mauayyan taushunchani obrazli yoki his-hayajonli ifoda etadigan bir til frazeologigi o'zga til frazeologiyasi tizimida o'zining mufiq ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmasligi

mumkin. Agar ba'zan asliyat va tarjima tillarida mavjud bo'lgan ayrim frazeologik birliklar mazmuniy-uslubiy jihatdan bir-birlariga mos kelsalar-da, ular ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan milliy bo'yoqqa ega bo'ladilarki, bu hususiyati ularning tarjimada bir-birlarini almshtirishlariga yo'l qo'ymaydi.

2.3. Kalka usulida tarjima qilish.

Hech bir til frazeologik birliklari hayotdagi barcha jihatlarni qamrab ololmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil varaiantiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi. Barqaror birlikning so'zma-so'z tarjimasi tufayli hosil bo'lgan birikmani ayrim hollarda tarjima tili me'yori qabul qila olmasligi, natijada harfho'rlikning yuzaga kelib qolishi ehtimoli ham mavjud. Bu holda adekvatlikning yaratilishi haqida ham, tarjima tili lug'at tarkibining boyishi to'g'risida ham so'z bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun tarjima amaliyotining sermahsul usullaridan bo'lmish kalkani xarfho'rlikdan tubdan farqlash zarur.

Harfho'rlikdan farqli o'laroq, frazeologik kalka asliyatdagi birlik ma'nosi va uslubiy vazifasini to'la saqlab qoladi. Bunday paytda asliyatning badiiy-estetik, g'oyaviy-mazmuniy xususiyati ham qayta yaratiladi. Bunga kalkaning yangi til sharoiti qonuniyati hususiyatining qat'iy hisobga olinishi asosida amalga oshirilishi tufayli erishiladi. Shuning uchun ham tarjima amaliyotining sermahsul usullaridan hisoblanmish kalkani asliyatning mazmunan va shaklan beo'xshov ifodasi bo'lmish harfxo'rlikka tenglashtirib bo'lmaydi.

Ammo ayrim kalkalar asoslarida mujassamlashgan obraz tarjima tili sohiblariga tushunarli va maqbul bo'lsa-da, goho tarjima tilida an'anaviy

hususiyatga ega ega emasligi tufayli g'ayritabiiyday tuyuladi. Lekin asta-sekin ular nutqda me'yoriy qo'llanilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Odatda umuminsoniy kuzatishlarga, kishilarning o'zaro yaqin yoki o'xshash madaniy – tarixiy hududga mansub, ko'p asrlik hayot tajribalariga asoslangan frazeologik iboralar kalka qilinadi.

Kirib kelgan tillarda to'la o'zlashib ulgurgan kalkalargina fuqorolik kasb etadilar. Hozirgi zamon o'zbek tili lug'at tarkibiga nazar tashlar ekanmiz, unga juda ko'p lisoniy birliklarning boshqa tillardan kirib kelganligining guvohi bo'lamiz.

Modomiki kalka jarayonida o'zga til iborasi hijjalab o'girilar, shu yo'l bilan uning semantik-uslubiy jihati va sintaktik qurilishi o'zlashtilar ekan, demak yorqin ko'zga tashlanib turadigan mazmuniy qurilishga ega barqaror so'z birikmagina kalka qilinadi.

Masalan, ibora ma'nosi bevosita tarkibidagi komponentlarining ma'nolaridan kelib chiqmaydigan frazeologik chatishmalar, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan xalq milliy xususiyatini aks ettiradigan boshqa iboralar kalka qilinmaydi. Tarkiblarida etnografik tushunchalar nomlari, leksik va semantik arxaizmlar mavjud, shuningdek, millat tarixi, xalq turmushi va uning diniy va e'tiqodi bilan bog'liq so'zlar qo'llanilgan frazeologik iboralar xam kalka qilinmaydi.

Kalka usuliga murojat qilishda shuni ham hisobga olish lozimki, asliyat frazeologizmi obrazliligi, ta'sir kuchi, iboraning nutqda ko'p qo'llanilishi natijasida birmuncha kuchsizlangan, siyqalangan bo'ladi. Hijjalab qilingan tarjima oqibatida esa iboraning obrazliligi, hissiy-ta'sirchanligi “tirilib”, u jozibadorligi jihatidan asliyatdagi birlik darajasidan goho ustun bo'ladi. Bu holat hamma vaqt ham kalka usuliga murojat qilishni taqozo etmaydi. Shuning uchun ham mazkur usulga murojat qilishda asliyat frazeologizmida mujassamlashgan qo'shimcha

axborot darajasini va kalka tufayli hosil bo'lgan ibora kasb etadigan shunday ustakcha vazifani e'tiborga olish zarur.

Tarjima amaliyoti frazeologik iboralarni o'zbek tiliga kalka usulida o'girishning quyidagi yo'llariga e'tiborimizni tortadi.

a) Asliyatdagi birliklarga leksik tarkib va uslubiy vazifa jihatlaridan to'la mos kalkalar (ikki til ifodalarining grammatik qurilishlari goho bir-birlaridan farq qilishi mumkin). Agar asliyatda qo'llanilgan frazeologik iborada mujassamlashgan obraz hayotiy kuzatishlarga hamda barchaga ma'lum va mashhur tabiat hodisalariga asoslangan, shu bilan birga tarjima tili sohiblariga yaxshi tanish voqea-hodisalar zaminida vujudga kelgan bo'lsa-yu, ibora tarkibidagi unsurlar orasida mantiqiy bo'g'lanish ko'zga yaqqol tashlanib tursa, bunday frazeologik iboralarning hijjalab qilingan tarjimasi asliyatdagi birlik mazmuniy-uslubini va pragmatik vazifasini qayta yaratadi, o'zbek tilida hosil qilingan so'z birikmasi chetdan kiritilganday, til tizimi uchun begonaday tuyulmaydi. Masalan, tuyaning dumi kaltaligi tufayli yerga tegmasligi, ho'kizning tug'masligi, takaning sut bermasligi ma'lum haqiqat. Shu asosda "hech qachon" tushunchasining obrazli ifodasi uchun o'zbek tilida "Tuyaning dumi yerga tekkanda", "Ho'kiz tuqqanda" frazeologik birliklari yaratilgan bo'lsa, rus tilida biror kimsa yoki biron narsadan biron masalada foyda kutishning behudaligini obrazli ifodalsh uchun "Polza, kak ot kozla moloko" frazeologik birligi barpo etilgan. Modomiki oldindagilari qatori keyingi ibora asosida yotgan hayot haqiqati ham tarjima tili sohiblariga yaxshi tushunarlilik tufayli mazkur iboraning hijjalab qilingan tarjimasi asliyatda mujassamlashgan ma'no va uslubiy hususiyatni qayta yaratgan.

Bunday so'z birikmalari boshda til an'anasining buzilishi oqibati sifatida ko'zga tashlansa-da, vaqt o'tishi bilan ko'p ishlatilish natijasida tilning odatiy vositalariga aylanib ketishlari mumkin.

Ba'zan tarjimonlar ona tilida asliyatdagi frazeologik iboralar ma'no va uslubiy vazifalarini aynan aks ettiradigan an'anaviy obrazli vositalar mavjudligi haqida

o'ylamay, ushbu tarjima usuliga murojat qiladilarki, bu yo'l asliyatda mujassamlashgan fikrni to'la aks ettirishga olib kelmaydi. Goho tarjimonlar asliyatda qo'llanilgan iboralarning o'z tillaridagi ekvivalent va muqobil variantlarini bilmasdan yoki asliyat tilining milliy o'ziga hosligini kitobxonga yetkazib berish maqsadida ushbu usulni tanlaydilarki, bu yo'l ham ko'p hollarda samara bermaydi.

b) Bu tarjima tilida mavjud bo'lgan barqaror lisoniy vositalar shakl, ma'no va uslubiy vazifalariga suyanib asliyatdagi frazeologik iboralarni kalka qilish. San'atkorlar ba'zan asliyatdagi barqaror so'z birikmalarining tarjima tilida muqobil variantlari bo'lishiga qaramasdan kalka usuliga murojat qiladilarki, hosil bo'lgan birikmalar o'sha mavjud muvofiq vositalar tarkibida mujassamlashgan hayotiy haqiqat va obrazli umumlashmalar asosida tabiiy jaranglaydi.

v) Ma'noni oydinlashtiruvchi so'zlar qo'shib, komponentlar tarkibini kengaytirish yo'li bilan kalka qilish. Ba'zan tarjimonlar asliyatdagi frazeologik iboralarning so'zma-so'z tarjimalari natijasida hosil bo'lgan birikmalarni zaruriy ma'no va uslubiy ta'sirchanlikni yaratishga ojizlik qiladi degan fikrga borib, ularga ma'noni oydinlashtiradigan, mantiqan to'ldiradigan so'zlar qo'shadilar.

Goho tarjimonlar, ushbu usulning suiiste'mol qilib, siqiq holdagi frazeologik iboralar so'zma-so'z tarjimalariga ortiqcha izohlar berish yo'li bilan ularning metaforik obrazlilikini uslubiy betaraf holda keltirib qo'yadilar, chunki frazeologik iboralarga hos ixcham va lo'nda ifodalarning barbod bo'lishi odatda ular yordamida yuzaga keltiriladigan uslubiy ta'sirchanlikni ham yo'qqa chiqaradi. Birliklarning o'zlariga hos siqiq shakllarini tarjimada saqlash yo'li bilangina ular tarkibida mujassamlashgan obrazli umumlashmalarni qayta yaratish mumkin.

g) O'zga tarjima usullaridan foydalanish mumkin bo'lishiga qaramasdan, kalka usuliga murojat qilish. Bu usul ko'pincha tarjima tili leksik-sintaktik me'yori qabul qila olmaydigan so'z birikmalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Hosil qilingan bunday ifoda vositalari, o'z navbatida, asliyatning mazmuniy jihatini me'yoriy aks

ettira olmasdan, muloqot jarayoniga halal beradi. Tarjimaning asliyatga bunday nomuofiq kelishining sababi shundan iboratki, tarjimonlar asliyatdagi frazeologik birlik mazmuni-uslubiy va pragmatik vazifalariga chuqur kirib bormasdan ish tutadilar, natijada ularning nazaridan frazeologik iboralar komponentlarining semantik qurilish chetda qoladi.

Muallif matnini hijjalab o'girish orqali uning mazmuniy-vazifaviy uyg'unligini soxtalashtiradigan, hissiy-ta'sirchanlik hususiyatini, badiiy –obrazli asosini xiralashtiradigan, tarjima tili me'yor va madaniyatini barpo etadigan, binobarin, asliyatning tugal –adekvat tarjmasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilamchi matnga aytiladi.

Bu tarjima turida asliyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar, grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy hususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'giriladi. Bu hol milliy –tarixiy va hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha hususiyatlardan holi uslubiy betaraf, nursiz so'z va so'z birikmalari yordamida talqin etilishiga olib keladi. Binobarin, so'zma-so'z tarjima noshud tarjimonlar nazarda tutgan maqsadni asarning mazmuniy-g'oyaviy hususiyatini kitobxonga to'la-to'kis yetkazib berish kabi vazifani o'tay olmaydi, chunki tarjimon oldida badiiy asarning boshqa bir shaxs tomonidan to'g'ri ma'nodagi, nursiz lisoniy vositalar yordamida amalgam oshirilgan bayoni turadi. Shuning uchun bunday amaliyot turi soxta tarjima usuli deyiladi.

Asliyat tarkibidagi farzeologizm ichki mazmuni va obrazli asosi mantiqiy zaminga ega bo'lib, bu asos ochiq-oydin ko'zga tashlanib tursa, shu bilan birga kishilarning hayotiy tarjribalari negizida yaratilgan bo'lsa, bunfay frazeologizm qator hollarda kalka usulida tarjima qilinadiki, bunday holda tarjima tilida tehishli frazeologiik birlikning nafaqat mazmuniy-uslubiy hususiyati, balki milliy o'ziga hosligi, ijtimoiy-madaniy hossasi ham qayta yaratiladi. Bunday paytlarda asliyat frazeologizmining shakl va mazmun birligi to'la tiklanadi, kitobxonning asliyat va

uning tili haqidagi tasavvuri boyiydi, asliyat yaratilgan xsalq tilida foydalanilgan barqaror uslubiy priyomlar va badiiy-tasviriy vositalar, ba'zan esa muallifning o'ziga hos ijodiy uslubi haqidagi tushunchasi kengayadi. Bu usul, shuningdek, tarjima tilining boyishi uchun ham zamin yaratadi.

Iboraga milliy hususiyat baxsh etuvchi komponent sof milliy asos sifatida xizmat qiluvchi tarixiy, diniy va boshqa dalillarga tayanmasdan, tarjima tili sohiblariga tanish milliy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lsa-yu, ularning urf-odatlarga zid bo'lmasa, bunday iborani bemalol kalka usulida talqin etish mumkin. Bunday paytda asliyatda qo'llanilgan birlikning obrazlilik hamda his-hayajon ifodasini holi bo'lishining ahamiyati katta.

2.4. Tasviriy usulda tarjima qilish.

Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant van a qal'qa yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojat qiladilarki, mazkur usul yordamida birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'ya qolinadi. Ushbu holatlarda asliyatdagi frazeologik birliklar tarkibida mujassamlashgan uslubiy vazifalarining qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon etilgan fikrning ta'sir kuchi pasayadi, aniq va siqqligi yo'qoladi. Bu esa o'z navbatida asliyat matni badiiy qiymatining pasayishiga olib keladi.

Ammo ba'zan asliyatda yaratilgan qo'shimcha ma'lumotni tarjimada tasviriy yo'l bilan ham qisman tiklash imkoniyati mavjud. Bu, bir tomondan, badiiy nutq tarkibida deyarli barcha ma'nodor lisoniy vositalarning estetik-ta'sirchanlik kasb etishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'p qo'llanilish oqibatida ayrim frazeologik birliklar obrazli-ta'sirchanlik hususiyatining ma'lum darajada nursizlanib qolishiga vobastadir.

Ko'pincha tarjimonlar asliyatdagi frazeologik birliklar uslubiy vazifalarini qayta yaratish maqsadida og'zaki nutqqa hos turli-tuman ma'no kuchaytiruvchi

vositalariga murojat qiladilarki, agar mazkur so'zlar zaruriy ohang bilan talaffuz qilinsagina personaj nutqiga obrazlilik baxsh etgani holda, asliyat o'rnini ma'lum darajada qoplashi mumkin. Baribir, bunday vositalar tasviriy usuldan kam farq qilishlari tufayli, qator hollarda asliyatdagi obrazli frazeologizmlar vositasida yaratilgan uslubiy ta'sirchanlik o'rnini bosolmasliklari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tarkibida qo'llaniladigan frazeologik birliklar muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilar ekanlar, tarjimada ularning mazmuniy hususiyatlaridan tashqari muallif nazarda tutgan uslubiy maqsadning ham qayta yaratilishi ifodaning to'laqonligini ta'minlaydi.

Anna Zegersning „Die Toten bleiben jung“(Barhayot o'liklar) kitobidan ba'zi bir frazeologizmlarni kuztsak:

“ *Sen endi o'rtoqjon uni ko'nglingdan chiqarib tashlab,*.(4;6 7)

„*Du musst ihn dir jetzt aus dem Kopf schlagen...*“ (3;53)

sich etwas aus dem Kopf schlagen (müssen) (2;75)

miyasidan (hayolidan, esidan) chiqarib tashlamoq; u to'g'risida o'ylamaslik kabi ma'nolarni bildiradi.

Yoki yana bir misol:

„*Mayli, hohlang bir yoqlik qilishga yordamlashar, axir...*“(4; 67)

„*...die hilft dir hoffentlich über den Berg*“(3;54)

“*über den Berg sein*“ (2;13)

rangi o'ziga kelib qolgan, yuziga qon (qizil) yugurmoq; suvdan quruq chiqmoq, ilojini topmoq kabi ma'nolarni ifodalagan.

„*Axir sen xudoga shukur qilishing kerak, insofli odamlarseni balodan qutqarmoqchi!*“ (4; 68)

„Statt froh zu sein, dass man dir aus der Patsche hilft!“(3;55)

„Har bir yovuzlikka shayton aybdor bo'lganday“(4; 7)

„wie alles Böse von einem Teufel kommt.“ (3;56)

„Bo'ldi endi, uni hayolingdan chiqarib tashla“(4;71)

„schlag ihn dir doch mal endgültig aus dem Kopf“(3;57)

Tarjima tilida asliyatda qo'llanilgan barcha milliy hususiyatli lisoniy vositalarning mazmuniy - vazifaviy hususiyatlarini adekvatt qayta yaratish kitobxonga asarning milliy o'ziga hosligini, personajlari xulq-atvorini, hayoti asarda tasvirlangan xalq milliy ruhiyatini va, nihoyat, tilining o'ziga hosligini his etish imkoniyatini beradi. Tarjimaning asosiy vazifasi o'ga til vositalari yordamida asliyatning shakl va mazmun birligini qayta yaratishdan iborat ekan, bu ma'suliyat tarjimondan badiiy asarning milliy hususiyatini to'la talqin etishni talab qiladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda muayyan xalq hayoti bilan bog'liqlik ob'ektiv olamning u yoki bu hodisa va dalillari obrazli shaklda umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Orazlilikning lisoniy aks ettirilishi, jumladan har bir tilda o'z hususiyatiga , o'ziga hos ma'no va qurilish jihatlariga ega frazeologik biriklar vositasida namayon bo'ladi. Bu xalqning obrazli tafakkurida o'ziga hoslik mavjudligidan dalolat beradi. Ayni hususiyat frazeologizm tarkibida kutilmagan muqoyasaviy va metoforik tasavvurlarni keltirib chiqaradiki, ushbu omillar frazeologizmlarning milliyligini keltirib chiqaradi.

Har bir til frazeologik zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Muayyan til jamoasi lafziga mansub bunday frazeologizmlar milliy hususiyatli til vositalari sirasiga kiradi. Ular tilning xalqchilligi va o'ziga hosligini belgilagani holda, badiiy asarning milliy bo'yog'ini yuzaga keltiradi. Frazeologik iboralar milliy hususiyati esa tarkiblarida milliy tushunchalarni anglatadigan so'zlarning qo'llanilishi bilan bunyod etiladi. Masalan, ayrim frazeologik birliklarning komponentlar tarkibi ular taalluqli tillar harflari nomlaridan iborat bo'ladi.

Turli geografik nomlar ham frazeologik birliklar komponentlari vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, o'zbekcha frazeologik birliklar tarkibida o'zbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi. Nemischa va ruscha frazeologik birliklar komponentlari esa aksariyat hollarda Germaniya va Rossiya hududlarida joylashgan geografik nomlardan iboratdirlar.

Masalan, „Beva xotinga buxorodan it huradi“, „Onasini uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq“ frazeologik birliklari tarkiblaridagi „Buxoro“, „Uchqo'rg'on“ kabi geografik nomlar mavjud.

Milliy-tarixiy hususiyatli frazeologik birliklar tarjimasini masalasi tarjima nazariyasining eng kam qalamga olingan muammolari sirasiga kiradi. Milliy hususiyatli lisoniy vositalar tarjimasiga bag'ishlangan tadqiqotlar tarkibida bu haqda bayon qilingan fikrlar yetarli darajada emas. Mazkur masalani ozmi-ko'pmi yoritib beradigan maxsus tadqiqotlar esa bugungi kunda ko'zga tashlanmaydi.

Mazmunan o'xshash ikki til frazeologik ekvivalentlari yoki muqobil variantlari tarjimada hamma vaqt bir-birlarini almashtira olmaydilar. Buning sababi ayrim frazeologik birliklar tarkibida ular mansub bo'lgan xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan komponentlarning mavjudligidadir. Ba'zi milliy hususiyatli frazeologik iboralar esa tarjima tilida o'z muqobillariga ega emaslar. Bu usullar ijobiy fazilatlar bilan birga salbiy hislatlarga ham ega bo'lib, tarjimaning muaffaqiyati mazkur usullardan o'rinli va mohirona foydalanishga bog'liqdir.

Ba'zan asarlar tarjimasi, mazkur ishni ijodiy jarayon deb emas, balki daramod manbai sifatida tushunadigan ayrim iste'dodsiz shaxslar qo'lga topshirib qo'yiladiki, bu tarjimonlar matnga savodsizlarcha munosabatda bo'lganlari holda, o'z matnlarini tarjima amaliyotida duch kelinadigan ko'plab nuqsonlar bilan to'ldirib yuboradilar, natijada aslyatda mujassamlashgan son-sanoqsiz obrazli, hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalar tarjimada aslyimonand jaranglamaydi, qisqasi, aslyat g'oyaviy-badiiy mazmuni muallif ifodasi darajasidagi til va uslub vositalari yordamida talqin etilmaydi. Vaholangki, tarjimon tomonidan tanlangan barchaleksik- freazeolgik iboralar, uslubiy vositalar, grammatik shakllar, so'zlar orasidagi sintagmatik munosabatlar til vakillari tajribalarida sinalgan, silliq, yuqori saviyali, adabiy til me'yor va qoidalaridan chetga chiqmaydigan, takomillashgan bo'lishi, aslyatdagi vositalarga vazifaviy mos kelishi zarur.

III BOB.

FRAZEOLIGIK IBORALAR TURLARI

Frazeologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq:

Birinchidan, bir xil moddiy ma'no ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiya (vazifalar)ni bajaradi;

Ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi.

Rus tilshunosi V. V. Vinogradovning umumiy tilshunoslik miqyosida e'tirof etilgan tasnifga ko'ra frazeologizmlar uchta katta guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) Frazeologik butunlik
- 2) Frazeologik chatishma
- 3) Frazeologik birikma

3.1. Frazeologik butunlik.

Bular tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'lning birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi.

(ein) blinder Passagier „ein reiseunberechtigter Passagier“ (chiptasiz yo'lovchi)
blinder Schuß „ungezielter Schuß“ (..) *kalte Miete* ugs. „Miete ohne Heizungskosten“ (..); *warme Miete* ugs. „Miete einschließlich Heizungskosten“ (..) *leer aushgehen* „von etw. nichts abbekommen“.

1. Zum Ausdruck bringen- „ausdrucken“
(So'zma-so'z tarjimasi: ifodaga keltirmoq;
Ko'chma ma'noda: ifodalamoq.)
2. Platz nehmen- „sich setzen“
(So'zma-so'z tarjimasi: joy olmoq ;
Ko'chma ma'noda: o'tirmoq.)
3. Schlusse ziehen- „beenden“
(So'zma-so'z tarjimasi: xulosalar tortmoq;

Ko'chma ma'noda: tugatmoq.)

Bu birikmalarda fe'llar ko'chma ma'noda, otlar esa to'g'ri, moddiy ma'noda qo'llanilgan.

Tarjima nuqtai nazaridan frazeologizmlarning birinchi va ikkinchi guruhlarini tarjima qilish qiyin, chunki, birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nosiga asoslanib birikmaning barcha ma'nosini doimo ham tushunib bo'lmaydi.

4. Masalan: jemanden auf den Arm nehmen

(So'zma-so'z tarjimasi:birovni qo'liga olmoq;

Ko'chma ma'noda: kimnidir kalaka qilmoq, ustidan kulmoq)

5. Hinter schwedischen Gardinen sitzen/sein

(So'zma-so'z tarjimasi:pardalari ortida o'tirmoq/ bo'lmoq;

Ko'chma ma'noda: panjara ortida /turmada o'tirmoq)

6. der Hund des Gärtners

(So'zma-so'z tarjimasi:bog'bon iti;

Ko'chma ma'noda: na o'zi yeydi, na birovga beradi)

7. zu tief ins Glas gucken

(So'zma-so'z tarjimasi:stakan ichiga chuqur qaramoq;

Ko'chma ma'noda: ortiqcha ichib qo'ymoq)

8. Ein Haar in der Suppe finden

(So'zma-so'z tarjimasi: kamchiliklar axtarmoq;

Ko'chma ma'noda: norozi bo'lmoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq)

Frazeologizmlarning uchinchi gruppasini tarjima qilish ancha oson.

9. Masalan: die Prüfung ablegen

(So'zma-so'z tarjimasi:imtixonni chetga qo'ymoq

Ko'chma ma'noda:imtixon topsgirmoq)

10.in Kenntniss setzen

(So'zma-so'z tarjimasi: bilimga o'tistirmoq

Ko'chma ma'noda:xabardor qilib qo'ymoq)

11. Alarm schlagen

(So'zma-so'z tarjimasi: trevoga urmoq

Ko'chma ma'noda:trevoga bermoq)

12. Abschied nehmen

(So'zma-so'z tarjimasi:xayrlashuv olmoq

Ko'chma ma'noda:xayrlashmoq)

13.in Frage stellen – shubha ostiga olmoq(qo'ymoq); savol tug'dirmoq (hal bo'lmaslik)

14. auf eigenen Füßen stehen- mustaqil bo'lmoq, qaram bo'lmaslik (moddiy jihatdan)

15. das Genick brechen- umurtqasini sindirmoq; kuragini yerga tegizmoq, bor yo'g'idan ayirmoq

16. ins Herz schließen- oshiq-u beqaror bo'lmoq, ko'ngil qo'ymoq, jon dili bilan sevmoq

17. jmdn. den Kopf waschen- kimnidir qattiq koyimoq,urushib bermoq

18. an der Krippe sitzen – „yog'li“joyda o'tirmoq, yengil-yelpi yo'l bilan tekin pul topmoq

19. Zufall bringen jmdn.-amaldan tushirmoq, barbod qilmoq, puchga chiqarmoq

20.die Gläser klingen lassen – ichishdan oldin qadahlarni urishtirmoq (spirtli ichimlik)

21. ein Glückspils sein- baxtli, omadli odam

22. aus der Luft gegriffen- osmondan (havodan)olib gapirmoq, to'qib chiqarilgan yolg'on

23.gewonnes Spiel haben- g'olib kelmoq

24. etwas in die Waage leiten- yo'lga qo'ymoq, ishga solib yubormoq

25. jmdm.das Wort aus dem Munde nehmen- 1) birovning fikrini oldindan payqamoq;

2)gapini bo'lmoq, gapini uzib qo'ymoq

26. die Zeit totschiagen – vaqtni bekorga ketkizmoq, yo'qotmoq

27. die Ohren spitzen – ding quloq bo'lmoq, quloq osmoq

28. ein schwerer Junge – jinoyatchi, jinoyatkor

29. seit Jahr und Tag – almisoqdan beri

30. jmdn.den Hals abschneiden – bo'g'moq,halok qilmoq (iqtisodiy), yo'lga to'g'anoq bo'lmoq.
- 31.das fuchst mich oder ich fuchse darüber – bu qonimni qaynatadi
32. mir reißt die Geduld – toqatim toq bo'lyapti
33. etwas läuft ins Geld – hamyonga ziyon keltirmoq,kissasini quritmoq
34. etwas an die große Glocke hangen – nima haqidadir jar solmoq,nimanidir ovoza qilmoq
35. die Maske fallen lassen – (auch die Maske lüften, (oder)von sich werfen, abwerfen) – yuzidan niqobni yechmoq, o'zini haqiqiy basharasini ko'rastmoq
36. jmdm. ans Herz gewachsen sein – yuragidan urib qolmoq
37. ein Auge (beide Augen) zudrücken – o'zini go'llikka solmoq (bilmaslikka olmoq); yaqin kishisining o'limi oldida ko'zini pastga qaratib turmoq
38. den Ausschlag geben – masalani , ishni hal qilmoq; asosiy hal qiluvchi ro'l o'ynamoq
39. jmdm. einen Bären aufbinden – boplab ketmoq, dog'da qoldirmoq, tovlamoq; qulog'iga lag'mon ilmoq
40. sich auf Beine (Socken, Strümpfe) machen (territorialgebunden) – ravona bo'lmoq; yo'lga tushmoq
41. in den Fall gehen – 1) tuzoqqa ilinmoq, qamoqqa tushmoq 2) daxaga ketmoq; uyquga ketmoq
42. mit dem Feuer spielen – o't bilan o'ynashmoq; yengiltaklik qilmoq
43. sich einen Namen machen – o'zining nomini chiqarmoq, tanilmoq, dong taratmoq, mashhur bo'lmoq.
- 44.wie Pilze aus der Erde schießen – huddi qo'ziqorinday ko'paymoq (tezda, juda ko'p miqdorda)
45. an der Quelle sitzen – (asl manbadan) bilish uchun qulay vaziyatga ega bo'lmoq; tagiga yetishga imkoniyati bor
46. andere Saiten aufziehen – boshqacha, jiddiy ohangda gapirmoq
47. in eine Sackgasse geraten (auch: auf ein totes Geleise geraten) – boshi berk ko'chaga kirib qolmoq

48. jmdm. Sand in die Augen streuen – ko'zbo'yamachilik qilmoq; chalg'itmoq, laqillatmoq

49. fest im Sattel sitzen (sein) – o'z joyini mustahkam egallamoq

50. jmdm. einen Streich spielen – 1) o'rinsiz (qo'pol) hazil qilmoq; 2) tang vaziyatda qoldirmo

3.2. Frazеologik chatishma

Frazеologik chatishmalar bunday birliklarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga *frazеologik chatishmalar* deyiladi.

1. Ein Brett vor dem Kopf haben- “dumm sein”

(So'zma-so'z tarjimasi: “boshi oldida taxta bor”

Ko'chma ma'noda: “tentak bo'lmoq”)

2. Haare auf der Zahne haben- tili o'tkir, zahar(achchiq), og'zi botir

3. ein grüner Junge- ona suti og'zidan ketmagan yigitcha

4. jmdn. Durch den Kakao ziehen- kulgi qilmoq, o'sal qilmoq

5. aufs falsche Pferd setzen- hisob-kitobdan adashmoq, yanglishmoq

6. in seinem Element sein (fühlen)- o'z uyidek his qilmoq;o'zini erkin his qilmoq

7. ein Buch mit sieben Siegeln- hech bir tushunib bo'lmaydigan narsa, jumboq

8. dumm wie Bohnenstroh- to'nka; oshqovoq, (xom)kalla

9. Farbe bekennen –ochig'ini aytmoq;cho'rtkesar bo'lmoq

10. mein Name ist Hase – sira habarim yo'q, tuya ko'rdingmi?...yo'q.

11. es war für die Katze – bexudaga, e'tiborga arzimaydigan, noloyiq narsa

12. ich kann ein Lied davon singen- boshidan kechirgan, yetarlicha bilmoq

13. die Katze im Sack kaufen – ko'rmasdan, bilmasdan, qaramasdan sotib olmoq

14. auf zwei Hochzeiten tanzen –bir o'q bilan ikki quyonni urmoq, birvarakayiga ikki tadbirdabo'lmo, (ishtirok etmoq)

15. da ist Hopfen und Malz verloren – behuda urinish, bekordan bekorga, o'rinsiz

16. das kommt mir spanisch vor – shubhali bo'lib tuyulmoq,hadiksiramoq, bu tushunarli emas

17. auf der Tasche liegen – birovga yuk, qaram bo'lmoq
18. auf keinen grünen Zweig kommen – omadi (ishi) yurishmaslik
19. eine Zigarre (verpasst)bekommen- qattiq tanbeh eshitmoq, tazirini yemoq.
20. jmdm. Luft schaffen- vaziyatni yengillashtirmoq, yengillik keltirmoq
21. den Mantel nach dem Wind hängen – o'z fikriga ega bo'lmay, boshqaning fikriga qo'sharmoq, ikkiyuzlamachilik qilmoq
22. ein offenes Ohr haben – hamdardlik bildirmoq, rahm-shavqat qilmoq
23. vom Hundertsten ins Tausendste kommen – fikri chayqalmoq, mavzudan chetga chiqmoq
24. es ist Jacke wie Hose (auch, es ist wie Wurst, wie Schale oder Schinken)- Ali-Xo'ja – Xo'ja –Ali, oq it qorq it bari bir it, hammasi bir go'r
25. das ist gehupft wie gesprungen – baribir, farqsiz, Ali-Xo'ja – Xo'ja –Ali
26. mir läuft die Galle über – toqatim toq bo'ldi, sabrim tugadi, o'zimni yo'qtib qo'yayapman
27. das schlägt dem Fuß den Boden aus – bunga ortiq chidab bo'lmaydi, bu haddan tashqari, muttahamlik
28. etwas an den Tag bringen (auch ans Tageslicht bringen) – namoyon qilmoq, ma'lum qilmoq (yashirin narsani)
29. etwas aufs Tapet bringen - 1) gap boshlamoq, gap ochmoq;
2) ko'pchilikni diqqatini jalb qilmoq
30. jmdm. einen Possen spielen (jmdm. etw. zum Postentun) - birovga hazil qilmoq, birovni mayna qilmoq
31. einen Pflock zurücksetzen – istagini so'ndirmoq, hafsalasini pir qilmoq
32. einen Pick auf jmdn haben – birovga tish qayramoq, kek saqlamoq
33. jmdm. eine bittere Pille (zu schlucken) geben – achchiq gap qilmoq (kingadir), o'yib (uzib olmoq)
34. da fällt dir keine Perle aus der Krone – bu bilan o'lib qolmaysan, yeyilib qolmaysan; taxtdan tushib qolmaysan
35. sich den Kopf einrennen – g'alvani tekinga sotib olmoq; o'ziga o'zi ish ortirib olmoq

36. die Klappe halten (stark fam) grob- indamay turmoq, og'ziga talqon solmoq; tilini tishlamoq (tiymoq)
37. Hinz und Kunz – har bir duch kelgan (o'tgan ketgan) odam
38. von der Hand gehen – ishi o'ngidan kelmoq
39. zweilinke Hände haben –qo'li kaltalik qilmoq
40. nicht von schlechten Eltern sein - to'laqonli, baquvvat, tog'ni talqon qilguday kuchli
41. mit seinem Latein zu Ende sein; das Ende vom Lied(e) – ishni pachavasi chiqdi; ish orqasiga (chappasiga) ketdi
42. mehrere (viele, zwei, noch ein) Eisen im Feuer haben 1) sermaqsad bo'lmoq; rejasi, loyihasi ko'p; ishbilarmon kishi 2) hamma narsaga qodir
43. ein heißes Eisen – nozik (qaltis ish)
44. Daumen drehen – bekorchilikdan bezor bo'lmoq; bekordan xudo bezor
45. jmdn. für dumm verkaufen – axmoq qilmoq, aldab ketmoq
46. jmdn. im dunkeln lassen – kimnidir dovdiratmoq, haqiqatni yashirmoq
47. mit jmdm. unter einer Decke stecken – (bekorchiga) hamtavoq bo'lmoq
48. jmdm. ein Dorn im Auge sein – ko'z o'ngida o'ralashib jonga tegmoq; xirapashsha (shiqim) bo'lmoq, ichi qoralik qilmoq, ko'ra olmaslik
49. tun, als ob man nicht bis drei zählen könnte – o'zini nodon qilib ko'rasatmoq
50. geladen sein – kayfiyati past, juda jahli chiqmoq; kayfi noxushlik, ma'yuslik

3.3. Frazeologik birikma

Frazeologik birikmalar: bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'ladi.

(ein) blinder Passagier „ein reiseunberechtigter Passagier“(chiptasiz yo'lovchi)
blinder Schuß „ungezielter Schuß“ (..) *kalte Miete* ugs. „Miete ohne Heizungskosten“(..); *warme Miete* ugs. „Miete einschließlich Heizungskosten“(..
leer aushgehen „von etw. nichts abbekommen“.

den Mund halten “schweigen”(jim turmoq); Grillen fangen „grübeln“(uzoq o'ylab ko'rmoq);

jmdm. den Kopf waschen „jmdn. scharf zurechtweisen“; (...) jmdm. einen Bären aufbinden „jmdn. belügen“ (kimnidir aldamoq);

ins Gras beißen „sterben“ (o'lmoq); in der Tinte sitzen „in einer mislichen Situation sein“ (sho'ri qurimoq, tang ahvolda qolmoq, juda mushkul ahvolga tushmoq);

die Beine unter die Arme nehmen „sich beeilen“ (shoshilmoq), „schnell davon laufen“; die Hände in den Schoß legen „nichts tun“, „faulenzeln“ (hech narsa qilmaslik, dangasalik qilmoq);

eine weiße Maus „Verkehrspolizist“, ugs. Scherzhaft; ein schwerer Junge „Verbrecher“ (jinoatchi);

der Apfel der Zwietracht „etwas, was die Menschen entzweit“; die Kuh des kleinen Mannes „die Ziege“ (echki);

Freund und Friend „alle“ (hamma); in Hülle und Fülle „im Überfluß“ (to'kin-sochin, serobgarchilik);

Schritt für Schritt „allmählich“ (asta-sekin); Schritt um Schritt „mehr und mehr“ (...); Hand in Hand „gemeinsam“, „zusammen“ (birgalikda);

alt und jung „alle“ (hamma); geschniegelt und gebügelt „übertrieben fein herausgeputzt“ (juda yaxshi tozalangan);

hin und wieder „manchmal“ (gohida); hin und her „ohne bestimmtes Ziel“ (maqsadsiz), „auf alle Möglichkeiten hin“;

hegen und pflegen „behüten und pflegen“; schinden und schaben „geizen“, veralt. sich schinden und plagen, abmühen“;

durch die Bank „ohne Ausnahme“ (yoppasiga, tengma-teng); um ein Haar „beinahe“; auf Anhieb „sofort“ (darhol), „beim ersten Versuch“; um Haaresbreite „sehr knapp“;

Im Handumdrehen „sehr schnell“ (juda tez);

mit offenen Augen „freudig“ (quvnoq);

auf jeden Fall „unbedingt“ (shubhasiz);

unter vier Augen „ohne Zeugen“ (bir-biriga qarab)

schnell wie der Wind „sehr schnell“(juda tez); naß, durchnässt wie eine gebadete Maus „ganz durchnäßt“;

arbeiten wie ein Pferd „äußerst intensiv, angestrengt arbeiten“(eshakday ishlamoq); dahinschmelzen wie Schnee an der Sonne „verschwinden,aufhören bes. von Zorn“; er tut, als hätte er die Weisheit mit Löffeln gefressen „er tut,als ob er sehr klug wäre“;

ein Gesicht (machen) wie drei (sieben) Tage Regenwetter „sehr verdrißlich, mürrisch“.

Frazeologik butunliklarning leksik-syntaksis jihatidan klassifikatsiya qilinishi quyidagicha:

1. Fe'lga oid frazeologizmlar
2. Otga iod frazeologizmlar
3. Ravishga oid frazeologizmlar

Fe'lga oid frazeologizmlar

Fe'lga doir iboralarga quyidagilarni kritish mumkin:

wie jmdm. unter die Arme greifen (jmdm. in einer Notlage helfen) ya'ni muhtojlikda yordam bermoq; *keinen Finger rühren(...), den Nagel auf den Kopf treffen (...); bergauf gehen* (yuqoriga chiqmoq); *bergab gehen* (..) u.a.

Bu iborada *bei jmdm. auf den Busch klopfen* nafaqat „etwas zu erkunden suchen“ (...) degan ma'noni bildirib qolmay, balki „vorsichtig, durch geschicktes fRagen zu erkunden suchen“ (..) kabi ma'nini bildiradi.

Yoki bu Friedrich W. MdtIning asarlaridan birida shunday iborani ko'rish mumkin:

“die fünfte Flasche gab ihm den Rest” - „jmdn. völlig betrunken machen“ ya'ni juda mast bo'lguncha ichmoq degan manoni bildiradi. *Den Kopf unter dem Arm tragen* „sehr krank sein“ (juda kasal bo'moq) va *ins Gras beißen* „sterben“ (o'lmoq) kabi misollarni ko'rsatishimiz mumkin.

Otga oid frazeologizmlar

Otga oid frazeologizmlarga misol qilib quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: *wie (ein) schwerer Junge* „Verbrecher“(jinoyatchi); *die weißen Mäuse*

„Verkehrspolizistin“ (.); *das schwarze gold* „Erdöl“ (ko'mir); *die weiße Kohle* „Wasserkraft“ (suv energiya) va „Elektrizität“ (elekrastansiya) *die Kuh des kleinen Mannes* „die Ziege“ (echki) va international ibora bo'lmish *Apfel der Zwietracht* „etwas, was die Menschen entzweit“ oder *des Pudels Kern* „die eigentliche Ursache“ (...) kabilardir.

Ravishga oid frazeologizmlar

Ravishga oid frazeologizmlarga misollar quyidagilar:

1. Predloglar bilan kelgan ravish :

Präp+S: durch die Bank „ohne Ausnahme“; um ein Haar „beinahe“; auf Anhieb „sofort“, „beim ersten Versuch“; um Haaresbreite „sehr knapp“;

Im Handumdrehen „sehr schnell“;

Präp + Adj ≡ S mit offenen Augen „freudig“;

Präp + Pron ≡ S auf jeden Fall „unbedingt“;

Präp + Zahlw ≡ S unter vier Augen „ohne Zeugen“

Um ein Haar „beinahe“ (deyarli), *aus dem Stegreif* „ohne Vorbereitung“ (tayyorgarliksiz) va boshqalar.

2. So'zma-so'z kelgan ravish:

	Feuer und Flamme (begeistert)
Substantivische	mit Haut und Haar „ganz“ (butun) va „völlig“ Schritt für Schritt (qadamma-qadam)
Adjektivische (Part.)	krumm und lahm alt und jung verflucht und zugenäht!
verbale	hegen und pflegen nicht leben und nicht sterben können
adverbiale	hin und wider ab und zu

mit Hab und Gut, in die Kreuz und Quere, klipp und klar(aniq va ravshan) Schlag auf Schlag (in rascher Folge rasch nacheinander), Punkt für Punkt, Wort für Wort (so'zma-so'z).

3. Qiyosiy iboralar:

hässlich wie die Nacht „sehr hässlich“(juda yoqimsiz)

dumm wie Sünde „außerordentlich dumm“(juda ahmoq)

ein Gedächtnis haben wie ein Sieb „ein sehr schlechtes Gedächtnis haben“

arbeiten wie ein Roboter „ununterbrochen, schwer arbeiten“(og'ir ishlamoq)

schimpfen wie ein Rohrspatz „laut und heftig schimpfen“(juda qattiq so'kmoq)

schlafen wie ein Sack „tief schlafen“ (ko'p uxlamog)

essen wie ein Spatz „sehr wenig essen“ (juda oz yemoq)

treu sein wie ein Hund „sehr treu“(juda sodiq)

leben wie ein Hund „elend, ärmlich leben“ (juda kambag'al yashamoq)

toben wie zehn nackte Wilde im Schnee „bleich wie der Tod“ (murdaday rangi sovuq)

1. Große Augen machen- “staunen”

(So'zma-so'z tarjimasi: ko'zini katta qilib ochmoq

Ko'chma ma'noda; hayratlanmoq)

Bu birikmaning ko'chma ma'nosi ma'lum darajada tarkibidagi so'zlarga bog'liq:

Odam hayron bo'lganda ko'zini katta qilib ochadi.

2. im Gänsemarsch gehen – turnaqator bo'lib, oldinma-ketin, tizilishib, ketma-ket bormoq

3. seinem Herzen einen Stoß geben- yuragi dov bermoq, jur'at qilmoq

4. den Kopf in den Sand stecken- o'zini havf-hatardan olib qochmoq

5. sich krank lachen - kulaverib ichagi uzilmoq,dumalab-qotib kulmoq

6. die Wände haben die Ohren –devorning ham qulog'i bor, do'ppining tagida odam bor, kosa tagida nim kosa

7. sich etwas hinter den Ohren schreiben – quloqqa quyib olmoq,diliga jo qilib olmoq

8.ein Theater machen – mojarog qilmoq, adi-budi aytishmoq

- 9.in den Wind reden – behudaga gapirmoq, o'ylamasdan gapirmoq
- 10.bei Wasser und Brot sitzen – kuni non va suvga qolmoq (qamoqda)
11. jmdm. die Zähne zeigen – zo'rlik qilmoq, qo'pol javob qaytarmoq
12. seinem Herzen Luft machen – yuragidan (alamini ,dardini)birovga to'kib solmoq
13. ein Theater machen – mojaro qilmoq, adi-badi aytishmoq
14. jedes Wort auf die Goldwaage legen – har bir so'zini taroziga solib ko'rmoq
15. jmdm. Die Zähne zeigen – zo'rlik qilmoq, qo'pol javob qaytarmoq
16. das Züglein an der Waage sein (bilden,spielen) – hal qiluvchi ro'l o'ynamoq, posongini bosmoq
17. in den Mond gucken (auch in den Eimer) – hamma narsadan quruq qolmoq
18. Oberwasser haben (bekommen) –ustun kelmoq, yutib chiqmoq (do'stlari oldida)
- 19.auf den Hund kommen (tanazzulga)inqirozga yuz tutmoq, juda og'ir, noiloj ahvolga tushmoq
20. Hals über Kopf - 1) boshi qotmoq, ikki oyog'ini qo'liga olib, zing'illab yeldek uchib;
- 2) apil-tapil shoshilib; it quvgan sovoqday
- 21.kalte Füße bekommen (kriegen) - qo'rqmoq, cho'chimoq, yuragi dov bermaslik
- 22.sich mit fremden Federn schmücken - birovning kiyimini kiyib olmoq, birovning narsalari bilan yasanmoq
23. wie die Faust aufs Auge passen - xo'kizga to'qim urganday, eshshakka do'lana taqqanday
24. die Farbe bekennen – ochig'ini aytmoq, cho'rtkesar bo'lmoq
25. ein dickes Felle haben –tepsa tebranmas, terisi qalin, gap ta'sir qilmaydigan (odam)
26. die Augen sind größer als der Magen – ko'zi to'ymas, besh qo'lini birvarakayiga og'ziga tiqmoq

27. etwas durch die Blume sagen – kinoya (piching) qilib gapirmoq, kosaning tagida nimkosasi bor
28. etwas in die Esse schreiben müssen (können) – qo'lini yuvib qoltig'iga urmoq; qo'l siltamoq; umidini uzmoq
29. ihm sind alle Felle weggeschwommen (fortfeschwommen) –hom hayol, puch hayol, ishonchsiz, umidsiz odam; oxirgi umidini uzmoq
30. sich über die Fliege an der Wand ärgern – har bir ikir-chikirga g'ashi kelmoq
31. einen Floh ins Ohr setzen – 1) alg'ov-dalg'ov qilmoq, oyoqqa turg'izmoq (kimnidir) 2) jig'ibiryon qilmoq; faraz qilish
32. wie im Fluge – ko'z ochib yumguncha, bir zumda
- 33.an einem Haar hängen (auch an seinen Faden hängen)- qil ustida turmoq, hayoti jar yoqasida bo'lmoq
34. Haare auf der Zahne haben – tilio'tkir, zahar (achchiq); og'zi botir

UMUMIY XULOSALAR

Ushbu ishni yozish jarayonidagi izlanishlarimiz tahliliga ko'ra, chet tilini o'rganishda, ayniqsa, so'zlashuv va badiiy uslubda frazeologik iboralar muhim o'rin egallaydi. Iboralarning ahamiyati va qo'llanilishi jihatidan so'zga teng kelishi, ko'chma ma'noni ifodalashi, ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'lishi, gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'la olishi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajarishi kabi hususiyatlari ham ahamiyatga molikdir. Iboralardan unumli foydalanish nutq ta'sirchanligini ham oshiradi. Nutqimizning ta'sirchanligi esa biz qaysi davlatda bo'lmaylik, hamkorlik va do'stona munosabatlarni yaxshilaydi, mustahkamlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Frazeologik birliklar nutq madaniyatini, badiiy-tasviriy vositalarini, fikrning turli-tuman uslubiy vazifalarini hisobga olgan holda, ularni bejirimgina talqin etishga, obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning o'ta murakkab jarayon ekanligi asosan ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqdir. Har bir til frazeologik zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi. Bir talay frazeologizmlar esa milliy hususiyatga egaligi bilan ham bizga har bir millatning dunyoqarashini, yashash tarzini, urf-odatlari va an'analarini to'la aks ettirib bera oladi.

Frazeologik iboralarni muhim va qiziqarli mavzu sifatida o'rganar ekanmiz, Muxtor Umarxo'jayev, Qambarali Nazarovlarning „Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at'i, Qudrat Musayevning „Tarjima nazariyasi asoslari“, Zohid Jumaniyozovning „Tarjima nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua"si, Anna Segersning "Die Toten bleiben jung" ya'ni "Barhayot o'liklar" Fozila Sulaymonovanning asarlaridan hamda, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" kabi bir qator kitoblari ustida izlanishlar olib borib, o'zimizga kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ushbu izlanishlarimiz samarasi o'laroq, mazkur ishdan oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda, maktablarda, seminarlarda, maxsus kurslarda foydalanilsa, biz ko'zlagan

maqsadimizga erishgan bo'lardik. Zero, ilm o'rganib, uni boshqalarga o'rgatmaslik, molu dunyoni yigib, uni ko'mib qo'yish bilan barobardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan, 2005.
2. Umarxo'jaev M., Nazarov Q. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. -Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. A.Seghers ."Die Toten bleiben jung". Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1973
4. A.Abdullayeva, X. Ro'zimatov ." Barhayot o'liklar" -Toshkent: 1962
5. M.D.Stepanova und I.I.Černyqeva Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Moskau : „Vishaya shkola“, 1986.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1978
7. Salomov G'. Til va tarjima. -Toshkent: Fan, 1966..
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1978
9. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. –Toshkent, 1980.
10. Salomov G'. Badiiy tarjimada uslubiy-milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish problemi//Tarjima san'ati, 5-kitob. –Toshkent, 1980.
11. Egamova Yanglish. Asl nusxadagi qahramonlar obrazini badiiy tarjimada qayta yaratish masalasi. ND. -Toshkent: Til va adabiyot instituti, 1974.
12. Z.Jumaniyozov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (O'quv uslubiy qo'llanma) Urganch, 2012.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, 1978.
14. R.Allayarova. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Ma'ruza matnlari). Urganch,2004.
15. Mahmudov G'. Nemis tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlar tarjimasi haqida.Tarjima madaniyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1982.
16. Orifjonov A. Tarjimada tasvir vositalarini berish//O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent: Fan, 1986.
17. Po'latov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. -Toshkent: Fan, 1967.
18. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992.

19. Axmanova. M. Slovar lingvisticheskix terminov. Moskva, 1969.
20. S.Saydaliev. Tilshunoslikka kirish. Namangan, 2004.
21. Z.Dosimov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2006.
22. Akobirov S. Lug'at- so'z xazinası. Toshkent, 1977.
23. Teliya V.N. Chto takoe frazeologiya. Moskva, 1966.
24. E.Riesel, E.Schendels, Deutsche Stilistik, Moskau, 1975.
25. E.Riesel, Stilistik der deutschen Sprache, Moskau, 1968.
26. Fayzullaeva R.K Natsionalniy kolorit i xudojestvenniy perevod. -Toshkent: Fan, 1979.
27. Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan. DD. -Toshkent: Til va adabiyot instituti, 1968.
28. Egamova Ya., Dovurboev O'. Anna Zegersning "Barhayot o'liklar" romani tarjimasida peyzaj tasviri//Badiiy tarjimaning aktual masalalari. -Toshkent: Fan, 1977.
29. Abdullaeva M. Tarjimada milliy o'ziga xoslikni ifodalash yo'llari. O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent: Fan, 2004.